



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
biologiya fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yilida 8-sinflar uchun
IV chorak biologiya fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 8-sinflar uchun biologiya fanidan IV chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Aql-idrok, tafakkur, so‘z va nutq	1		
2.	Hissiyot va uning boshqarilishi	1		
3.	1. Xotira / 2. Uyqu va uning ahamiyati	1		
4.	Nerv faoliyati tiplari, nerv sistemasi gigiyenasi	1		
5.	1. Sezgi organlarining ahamiyati / 2. Ko‘rish analizatorlari	1		
6.	Ko‘rish organlarining funksiyasi	1		
7.	7-laboratoriya mashg‘uloti. Ko‘rish o‘tkirligini aniqlash	1		
8.	Eshitish organlarining tuzilishi, eshitish gigiyenasi	1		
9.	Muvozanat saqlash, muskul sezish va tuyg‘u organlari	1		
10.	Hid bilish va ta‘m bilish organlari	1		
11.	Ko‘payish organlari	1		
12.	Urug‘lanish va homilaning rivojlanishi	1		
13.	Nazorat ishi-7	1		
14.	Bolaning o‘sishi va rivojlanishi	1		
15.	Nazorat ishi-8	1		
16.	Odamning biologik o‘zgarishi va ijtimoiy tabiati	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Aql-idrok, tafakkur, soʻz va nutq

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy maqsad: Har bir inson bilim olishi, hunar oʻrganishi, sport bilan shugʻullanishi, oʻz yurti va elining ravnaqi yoʻlida xizmat qilishi uchun salomat boʻlishi kerakligini tushuntirish, salomatligini saqlashi va mustahkamlashi uchun oʻz organizmi tuzilishini va unda sodir boladigan jarayonlarni oʻrganishi, kasalliklardan saqlanish choralarini bilishi zarurligi, anatomiya organizm va organlarning tuzilishi, fiziologiya organizm va organlarning hayotiy funksiyalari, gigiyena odamlar sogʻligʻiga turmush va mehnat sharoitining taʼsirini oʻrgatish, anatomiya va fiziologiya sohasidagi bilimlar, jarohat olgan kishilarga birinchi yordam koʻrsatib, ularning hayotini saqlab qolish uchun ham zarurligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi fanlari oʻzaro bogʻliq boʻlib, barcha tibbiyot fanlarining asosini tashkil etishi, odam jamiyatda oʻzi yaratgan qonuniyatlar asosida yashashi va biologiya qonunlariga boʻysunishi haqida tushuncha berish. Turli xil kasalliklardan saqlanish uchun har bir odam oʻz organizmining tuzilishi va funksiyasi bilan tanish boʻlishi haqida tushunchalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Respublikamiz mustaqillikka erishgandan soʻng sogʻliqni saqlash sohasida malakali kadrlar tayyorlash, aholiga malakali tibbiy xizmat koʻrsatish, aholi yashaydigan joylarda sanitariya-gigiyena xizmatlarini yaxshilashga katta eʼtibor berila boshlagani, hozir koʻplab shifoxonalar, ambulatoriyalar, poliklinikalar, sanitariya va epidemiologiya stansiyalari aholiga xizmat koʻrsatishi, suv, havo, tuproqlarning ifloslanishi, yer yuzida haroratning va atrof-muhitda radiatsiyaning ortib borishi, odam organizmiga psixologik taʼsirning koʻpayib borishi, kam harakatlanish va ortiqcha ovqatlanish, yurak-qon tomir, allergik, onkologik, OITS kabi kasalliklarning tobora keng tarqalib borishi ana shunday muammolardan hisoblanishi haqida tushuncha berish.

Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda boʻlayotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, oʻzining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma va diagrammalarni oʻqiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darslik, tarsviriy sanʼat turlariga doir koʻrgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: ogʻzaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: oʻquvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida eʼlon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Boʻlimlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Oʻtgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va oʻquvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, oʻquvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko‘zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Aql-idrok va tafakkur. Shartli reflekslarning hosil bo‘lishi va tormozlanishi odam bilan hayvonlarda o‘xshash kechadi. Bosh miyaning tuzilishi va hajmi

jihatidan shimpanze va gorilla odamga birmuncha yaqin turadi.

O‘tkazilgan tajribalarda shimpanze bir necha yashiklarni

ustma-ust taxlab, shiftga osib qo‘yilgan

bananni olgan, uchta buyumdan boshqa ikkitasiga

o‘xshamaganim tanlab olgan (73-rasm). Tabiatda gonllalar

mayda cho‘plarm smdinb olib, tish kovlaganliklari

yoki yassi toshlarni tanlab olib, ularning ustida yong‘oq

chaqishgani ma‘lum. Bu kuzatishlar hayvonlar ham turli

buyum va hodisalar o‘rtasidagi oddiy bogianishni

tushunishlari, ya‘ni ularda sodda aql-idrok

mavjudligini ko‘rsatadi. Aql-idrok bosh miya katta

yarimsharlari po‘stloq qismi faoliyati bilan bog‘liq. Yuksak

sutemizuvchilar va odam bosh miya yarimsharlari po‘stlog‘ida

juda ko‘p ilonizi egatcha va pushtachalar rivojlangan. Egatcha

va pushtalar miya po‘stlog‘i yuzasini kengaytirish vazifasini

bajaradi. Qushlar va tuban sutemizuvchilarda bunday

pushtachalar yo‘q, miya po‘stlog‘i yuzasi ham uncha katta

bo‘lmaydi. Tajribada kaplar shisha to‘siq orqasida

harakatlanayotgan oziqni ko‘rib turgan bo‘lsa ham to‘siqni

aylanib o‘tib, oziqni

yeyishni uddalay olmagan. Tulki esa buni uddasidan chiqqan

(74-rasm). Aql-idrok narsalar va hodisalar o‘rtasidagi

bog‘lanish qonuniyatlarini tushunib, ulardan yangi sharoitda

foydalana olish qobiliyatidan iborat.

Aql-idrok odamda hayvonlarga nisbatan juda yuksak darajada

rivojlangan bo‘lib, tafakkur shaklida namoyon bo‘ladi.

Tafakkur tufayli fikr vujudga keladi. Fikrlar inson ongida

tushunchalarga aylanadi. Tushunchalar asosida xulosa va

gipoteza yaratiladi. *Tafakkur* - muhit sharoitiga moslanishning eng oliy shakli

hisoblanadi.

Tafakkur tufayli organizm tez o‘zgarayotgan sharoitga moslanishi bilan birga, bu o‘zgarishlarni oldindan bilib oladi va ulardan o‘z faoliyatida foydalanadi.

So‘z va nutq. Tafakkur so‘z orqali ifodalanadi. So‘z narsa va hodisalarning tovush signali, ifodasi, ramzi hisoblanadi. Odam sezgi organlari yordamida idrok qiladigan narsa va hodisalarni so‘z orqali ifodalaydi.

So‘z faqat tovush signali emas, ko‘rish signali ham bo‘lishi mumkin. Kar

va soqovlar foydalanadigan qo‘l alifbosi xuddi shunday signal hisoblanadi. So‘z odamni atrof-muhit

bilan bog‘lash va olamni idrok etish vositasi hisoblanadi. Masalan, «qor», «yomg‘ir», «to‘fon»,

«chaqmoq» so‘zlarining ma‘nosini hamma biladi. So‘z - shartli ta‘sirlovchi hisoblanadi. So‘zlar

yordamida shartli reflekslar shakllanadi. Masalan, «limon» so‘zi limonning nordon ta‘mini eslatib,

so‘lak ajralishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, so‘zlar narsa va hodisalarni umumlashtirish funksiyasini

ham bajaradi. Masalan, «stol» so‘zi dastlab bolada muayyan predmet - o‘zi ovqatlanadigan joyni

anglatadi. bCeyinchalik u stol so‘zi yozuv stoli, oshxona stoli, televizor qo‘yiladigan stollarga ham


tegishli ekanligini bilib oladi. Endi bu so‘z

uning uchun umumlashtiruvchi bo‘lib qoladi.

So‘z nutq orqali ifoda etiladi. Nutq og‘zaki, yozma, hatto qo‘l harakatlari (soqovlarda) yordamida ifoda

etiladi. Nutq orqali ayrim odamlar va insoniyat to‘plagan tajribani boshqalar bilib oladi, insoniyat

yaratgan ma‘naviy va madaniy boyliklar avloddan avlodga o‘tkaziladi, fan, texnika va madaniyatning



73-rasm. Shimpanzeda oddiy aql-idrokni ko‘rsatadigan tajriba: *a* – yuqorida shimpanze yashiklarni ustma-ust qo‘yib, shiftga osib qo‘yilgan bananlarni olmoqda; *b* – shimpanzening uchta predmet orasidan boshqalardan farq qiladigan bittasini ajratib olishi.

uzluksiz rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi. Odamning nutq qobiliyati irsiylanadigan xususiyat, lekin muayyan yoshgacha soʻzlashga oʻrgatilmagan bola soqov boʻlib qoladi.

Soʻzlar, yaʼni til buyum va hodisalarga bevosita nrujoat qilmasdan, awalgi oʻrganilgan bilimlar asosida yangi bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Til orqali fikrlash fan, madaniyat va barcha insoniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

Soʻz vositasida odam faqat predmetlar yoki ularning belgi va xususiyatlarini umumlashtirib qolmasdan, tabiatda sodir boʻlib turadigan voqea va hodisalarni, oʻzining his-tuygʻularini ifodalaydi. Odam soʻzlar orqali fikrlaydi, Soʻzlar odamga abstrakt, yaʼni narsa va hodisalarning oʻzi boʻlmasa ham ular toʻgʻnsida fikrlashga imkon beradi, Odamning nutq qobiliyati chaqaloqlik davridayoq rivojlangan boʻladi. Lekin bola odamlardan ajralib qolganida uning gapirish qobiliyati namoyon boʻlmaydi. Bola 5 -6 yoshgacha gapirishga oʻrganmasa nutq markazi funksiyasi pasayib, bola aqliy rivojlanishdan orqada qoladi. Odam nutqining shakllanishi bosh miyaning bir qancha qismlari bilan bogʻliq. Odam ogʻzaki nutqining shakllanishi cbap miya yarimsharlarining peshana qismi, yozma nutqi esa chap yarimsharlar peshana va ensa qismi bilan bogʻliq. Oʻng va chap yarimsharlar simmetrik qismlarini bogʻlab turuvchi nerv tolalari har ikkala yanmsharning oʻzaro muvofiqlashib ishlashjni taʼminlaydi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Sutemizuvchilar va qushlar ham odamlar singari to'vusb signallari yordamida informatsiya almashinuv qobiliyatiga ega. Nima sababdan hayvonlar chiqaradigan tovush. signallarini nutq deyish mumkin emas?
2. Itlar va mushuklai faqat soʻzlar orqali beriladigan buyruqqa emas, balki xoʻjayini ismi va ayrim predmetlarning nomiga ham quloq solishadi. Hayvonlarning soʻzlarga reaksiyasi odamnikipidan qanday farq qiladi?

V. Darsni yakunlash: oʻquvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Hissiyot va uning boshqarilishi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: Har bir inson bilim olishi, hunar o'rganishi, sport bilan shug'ullanishi, o'z yurti va elining ravnaqi yo'lida xizmat qilishi uchun salomat bo'lishi kerakligini tushuntirish, salomatligini saqlashi va mustahkamlashi uchun o'z organizmi tuzilishini va unda sodir boladigan jarayonlarni o'rganishi, kasalliklardan saqlanish choralarini bilishi zarurligi, anatomiya organizm va organlarning tuzilishi, fiziologiya organizm va organlarning hayotiy funksiyalari, gigiyena odamlar sog'lig'iga turmush va mehnat sharoitining ta'sirini o'rgatish, anatomiya va fiziologiya sohasidagi bilimlar, jarohat olgan kishilarga birinchi yordam ko'rsatib, ularning hayotini saqlab qolish uchun ham zarurligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi fanlari o'zaro bog'liq bo'lib, barcha tibbiyot fanlarining asosini tashkil etishi, odam jamiyatda o'zi yaratgan qonuniyatlar asosida yashashi va biologiya qonunlariga bo'ysunishi haqida tushuncha berish. Turli xil kasalliklardan saqlanish uchun har bir odam o'z organizmining tuzilishi va funksiyasi bilan tanish bo'lishi haqida tushunchalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng sog'liqni saqlash sohasida malakali kadrlar tayyorlash, aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, aholi yashaydigan joylarda sanitariya-gigiyena xizmatlarini yaxshilashga katta e'tibor berila boshlagani, hozir ko'plab shifoxonalar, ambulatoriyalar, poliklinikalar, sanitariya va epidemiologiya stansiyalari aholiga xizmat ko'rsatishi, suv, havo, tuproqlarning ifloslanishi, yer yuzida haroratning va atrof-muhitda radiatsiyaning ortib borishi, odam organizmiga psixologik ta'sirning ko'payib borishi, kam harakatlanish va ortiqcha ovqatlanish, yurak-qon tomir, allergik, onkologik, OITS kabi kasalliklarning tobora keng tarqalib borishi ana shunday muammolardan hisoblanishi haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o'zini o'zi jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellectual rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darslik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko‘zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Hissiyot. His-tuyg‘u. Odam ko‘pincha o‘zi ko‘rgan, eshitgan voqea va hodisalarga nisbatan befarq bo‘lib qololmaydi, balki xursandchilik, xafa bo‘lish, ruhlaniş yoki g‘amginlik holatlari orqali o‘z munosabatini bildiradi. Hissiyot, ya‘ni his-tuyg‘u odamning atrof-muhitga va o‘ziga bo‘lgan munosabatlarning ifodalanishidan iborat. Hissiyot till. Odamning ichki kechinmalari uning yurish-turishi, tovush balandligi, so‘zlash ohangining o‘zgarishi, imo-ishora, mimika orqali ifodalanadi.



His-tuyg‘ular ijobiy (qoniqish, hayajonlanish, xursandchilik, xush ko‘rish) va salbiy (g‘azablanish, qo‘rquv, qayg‘u, jirkanish) bo‘ladi. Hissiyot odamlarning millati, tili va tarbiyasiga bog‘liq bo‘lmasdan, bir xilda namoyon bo‘ladi. Odamning yurish-turishi, gapining ohangi, tanasi va yuzining holatiga qarab, uning his-tuyg‘usi to‘g‘ri‘sida tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Hissiyot qon aylanish, nafas olish va boshqa organlar ishining faollashuvi bilan birga namoyon bo‘ladi (75-rasm).

Barcha odamlarda hissiyot o‘xshash bo‘lgani singari, his-tuyg‘uga ichki organlar reaksiyasi ham o‘xshashdir. Shuning uchun «qo‘rqqanidan eti jimirlab ketdi», «tepa sochi tikka bo‘ldi», «lavlagidek qizarib ketdi», «yuragi qinidan chiqayozdi» degan iboralar barcha millatlar tilida bir xil ma‘noni anglatadi.

Hissiyotning ahamiyati. Hissiyot bilan bog‘liq jarayonlar organlar faoliyatini va organizm kuchini o‘zgartiradi, uni yangi o‘zgargan sharoitga tayyorlaydi. His-tuyg‘uda paydo bo‘ladigan ifodali harakatlar zo‘riqishni kamaytiradi. Ifodali xatti-harakatlar hissiyot tili hisoblanadi. Hissiyotning ifodalanishiga qarab biz birovlarining his-tuyg‘usi, g‘am-g‘ussasini tushunib, uning holiga achinamiz. Shu tariqa ifodali xatti-harakat odamlarning o‘zaro munosabat vositasiga aylanadi. O‘z navbatida, ifodali xatti-harakatning o‘zi ham javob his-tuyg‘usini paydo qiladi.

Aktyor mimika, intonatsiya, ifodali xatti-harakatlari orqali obraz yaralish, uning ichki dunyosini ochib berish bilan birga, o‘z qahramonining kechinmalarini tomoshabinlarga ham o‘tkazib, ularda ham achinish hissiyotini paydo qiladi. Ifodali xatti-harakatlar orqali boshqalarning his-tuyg‘usiga ta‘sir qilish vaularning his-tuyg‘usini boshqarish mumkin. Masalan, bulaning har qanday ifodali his-tuyg‘usi katta yoshdagi kishilarga ta‘sir ko‘rsatadi va ular bolaning istagini bajarishadi. Buni tushungan bola o‘z his-tuyg‘usini yanada kuchliroq namoyon qila boshlaydi. Buning natijasida kelgusida o‘z his-tuyg‘usini jilovlay olmaydigan inson tarbiyalanib chiqadi.

Hissiyotni boshqarish. Ifodali xatti-harakat odamning ixtiyoriga bo‘ysunadi. Odam o‘z his-tuyg‘ularini to‘xtatib turishga, ya‘ni hissiyotga berilmasdan, o‘zini qo‘lga olishni o‘rganishi lozim. Odamdagi bu xususiyatlar uning yaxshi tarbiya ko‘rganligini va yuksak madaniyatli ekanligini bildiradi. His-tuyg‘u odamning o‘z ota-onasi va yaqinlariga munosabatini hamda

odamda oila, el-yurt, Yatan tuyg'usini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. His-tuyg' u odamning dunyoqarashini shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. His-tuyg'ular oila va maktabda beriladigan tarbiya va bilimlar orqali shakllanib boradi. Ta'lim va tarbiyasida nuqson ko'p bo'lgan bolaning his-tuyg'ulari muqim bo'lmaydi. Bunday bolalar g'arazli maqsadlarni ko'zlagan kishilar va giyohvandlar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

His-tuyg'ning boshqarilishi. His-tuyg'uning paydo bo'lishi bosh miya katta yarimsharlari va oraliq miya bilan bog'liq. His-tuyg'uning shakllanishida miya po'stlog'ining chakka va peshana bo'limlarining ahamiyati katta. Nerv markazlari va biologik faol moddalar hissiyotni kuchaytirishi yoki tormozlashi mumkin, Yarimsharlar po'stlog'ining peshana va chakka bo'limlari hissiyotning ixtiyoriy boshqarilishini ta'minlaydi. Po'stloqning peshana qismi hissiyotni tormozlaydi yoki faollashtiradi, ya'ni uni boshqaradi, Po'stloqning bu qismi zararlangan bemorlar o'z his-tuyg'ularni ixtiyoriy boshqara olmaydi. Ular bolalardek quvnoqlik holatidan osongina agressiv holatga o'tib qolishadi. Tajribada oraliq miyaning hissiyot mar kaziga kuchsiz elektr toki ta'sir qilinganida uyqudagi mushuk sakrab turgan, tanasini bukib, quloqlarini osiltirib oigan va junini hurpaytirib, hujum qilishga shaylangan (76-77-rasmlar). Hissiyotning boshqarilishida ichki sekretiya bezlari ajratib chiqaradigan biologik faol moddalar, ayniqsa adrenalin katta ahamiyatga ega

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:



1. «Yuragi qinidan chiqayozdi», «qo'rqqanidan eti jimirlab ketdi», «tepa sochi tikka bo'ldi», «lavlagidek qizarib ketdi» iboralari qanday hissiyot bilan bog'liq?
2. Ifodali xatti-harakatni hissiyot tili deyishadi. Ayting-chi, qo'lini paxsa qilib, boshini oldinga siltab gapirayotgan kishi nima demoqchi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hissiyotga tegishli tushunchalarni ulaming ma'nosi bilan juftlab yozing: A - hissiyot, his-tuyg'u, B - hissiyot tili, D - hissiyotning ichki namoyon boiishi, E – hissiyotning tashqi namoyon bo'lishi; 1 - ifodali xatti-harakatlar, 2 - qon aylanish, nafas olish organlari ishining faollashuvi, 3 odamning atrof-muhitga va o'ziga bo'lgan ichki kechinmalari, 4 - odamning yurish-turishi, gap ohangi, tanasi va yuz holati.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

45 listdan iborat astranomiya fanidan 8-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**